



IX ХАЛЫҚАРАЛЫҚ ТҮРКОЛОГИЯ КОНГРЕСІ

Түркі мәдениеті мен өркениетінің сабактастыры

20-22 ҚАЗАН 2021 ЖЫЛ

ТУРКІСТАН

IX. ULUSLARARASI TÜRKOLOJİ KONGRESİ

Türk Kültür ve Medeniyetinin Süreklliliği

20-22 EKİM 2021

TÜRKİSTAN

МАТЕРИАЛДАРЫНЫҢ ЖИНАҒЫ

BİLDİRİ KİTABI



Тюркологическое наследие А.Е.Крымского: Москва–Киев (к150-летию со дня рождения) - A.E. Krymsky's Turkological Heritage: Moscow–Kiev (For the 150th Anniversary of His Birth) / Рамиль ВАЛЕЕВ - Роза ВАЛЕЕВА (Prof. Dr. Ramil VALEYEV - Doç. Dr. Roza VALEYEVA)	1393
Города Уйгурского каганата и Восточного Туркестана: сравнительный аспект- Cities of Uyghur Khaganate and East Turkestan: Comparative Aspect / Рисалат КАРИМОВА (Dr. Risalat-Bibi KARIMOVA)	1405
О диалектной дифференциации в языке древнетюркских рунических надписях из Средней Азии - On Dialectal Differentiation in the Language of Ancient Turkic Runic Inscriptions From Central Asia / Эльдар АСАНОВ (Eldar ASANOV)	1423
O‘zbek va turkman tillari hamda Xorazm shevasi undoshlarining qiyosiy tahlili - Comparative Analysis of Uzbek and Turkmen Languages and Khorezman Consonants / Elyor Ilxom o‘g‘li ALIMARDANOV (Elyor ALÍMARDANOV)	1433
Kongre Programı / Бағдарлама.....	1443

O'ZBEK VA TURKMAN TILLARI HAMDA XORAZM SHEVASI UNDOSHLARINING QIYOSIY TAHLILI

Comparative Analysis of Uzbek and Turkmen Languages and Khorezman Consonants

Elyor Ilhom o'g'li ALIMARDANOV *

ANNOTATSIYA: Maqolada o'zbek va turkman tillari hamda xorazm shevasi undoshlar (konsonantlar) tizimi fonetik jihatdan muqoyasa qilingan. Ma'lumki, o'zbek va turkman tillari turkiy tillar oilasining alohida guruhlariiga mansub. O'zbek tili qarluq guruhi tarkibida bo'ssa, turkman tili esa o'g'uz guruhiiga taalluqli hisoblanadi. Shu jihatdan ikkala til undoshlar tizimida ham umumiylik, mushtaraklik saqlangan, shuning bilan birga, asrlar davomida o'ziga xos farqli, xususiy konsonantlar va ular bilan bog'liq tafovutli holatlar ham yuzaga kelgan. Aytish joizki, turkman tilining shakllanishida, asosan, o'g'uz, shuningdek, qipchoq elementlari o'z ta'sirini o'tkazgan. O'zbek tilining takomilida esa, qarluq, qipchoq, o'g'uz elementlarining barobar ta'sir natijasi yotadi. Shu jihatdan, o'zbek va turkman tillarining undoshlar tizimini qiyoslashda o'zbek tilining xorazm shevasi bilan qiyoslash maqsadga muvofiqdir [o'zbek adabiy tili ↔ xorazm shevasi ↔ turkman adabiy tili]. Ya'ni mazkur ishda o'zbek adabiy tili, turkman adabiy tili va xorazm shevalarining undoshlar tizimi o'zaro qiyos etiladi.

Kalit so'zlar. Turkiy tillar, o'zbek tili, turkman tili, xorazm shevasi, undosh tovushlar, fonetik tahlil.

ANNOTATION: The article compares the phonetic system of Uzbek and Turkmen languages and the system of consonants in Khorezm dialect. It is known that Uzbek and Turkmen languages belong to separate groups of Turkic languages. The Uzbek language belongs to the Qarluq group, while the Turkmen language belongs to the Oguz group. In this respect, the system of consonants of both languages has a lot in common, but at the same time, over the centuries, there have been specific differences, specific consonants and differences related to them. It should be noted that the formation of the Turkmen language was mainly influenced by Oghuz, as well as Kipchak elements. The development of the Uzbek language is the result of the equal influence of the elements Qarluq, Kipchak and Oguz. In this regard, when comparing the consonant system of the Uzbek and Turkmen languages, it is expedient to compare the Uzbek language with the Khorezm dialect [Uzbek literary language ↔ Khorezm dialect ↔ Turkmen literary language]. In other words, this work compares the Uzbek literary language, the Turkmen literary language and the consonant system of Khorezm dialects.

Keywords. Turkic languages, Uzbek, Turkmen, Khorezm dialect, consonants, phonetic analysis.

1. KIRISH VA DOLZARBLIGI

Turkologiyada turkiy tillar fonetikasi keng tadqiq etilgan mavzulardan biridir. Davrlashtirish asosida qadimgi, eski va hozirgi

* Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi alifiroqiy.95@gmail.com

turkiy tillardagi undosh fonemalarning miqdori va sifati, o'ziga xosliklari turkiy fonetikaning asosiy tadqiq obyekti hisoblanadi. Xususan, B.A.Serebrinnikov va N.Z.Gadjiyevalarning "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" (Serebrennikov va Gadjiyeva, 1986), N.A.Baskakovning "Turkiy tillarning tarixiy-tipologik fonologiyasi" (Baskakov, 1988), A.M.Sherbakning "Turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi" (Sherbak, 1970) kabi tadqiqotlarida yuqoridagi obyektlar o'rın olgan. Aytish kerakki, turkiy tillarning qarluq va o'g'uz guruhlariga mansub o'zbek va turkman tillarining fonetikasi, xususan, undoshlar tizimining ikki tildagi miqdori, qo'llanish o'rirlari, o'ziga xosliklari asosiy planda o'rganilmagan. Yuqorida sanalgan adabiyotlarda esa, umumiylar tarzda ma'lumotlar berib o'tilgan. Shu jihatlarni inobatga olgan holda, mazkur tadqiqotda o'zbek va turkman tillarida undosh fonemalarning xususiyatlari, o'ziga xosliklari haqida kuzatishlarimizni keltiramiz. Bunda ikki tildagi undoshlarning muvofiqligini aks ettirish maqsadida xorazm shevasi undoshlar tizimi ham tadqiq etiladi.

2. METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Mazkur maqolada o'zbek va turkman tillari hamda xorazm shevasi undoshlar sistemasini qiyoslashda analiz, sintez, qiyosiy-tarixiy, o'rni bilan oppozitsion tahlil metodlaridan foydalaniladi. O'zbek va turkman tillari undoshlar tizimi o'zining lotin alifbolarida, xorazm shevasi esa, xalqaro turkologik transkripsiyada taqdim etiladi.

3. TADQIQOT NATIJALARI

Undoshlar o'pkadan chiqayotgan havoning nutq a'zolariga tegishi natijasida hosil bo'ladigan tovushlardir. Turkiy tillarda unlilarda bo'lgani kabi undosh tovushlar ham bir-biridan son va sifat jihatidan turli darajada farq qiladi. Masalan, turk tilida 21 ta (Potseluyevskiy, 1936:35), ozarbayjon tilida 23 ta bo'lsa (Palivanov, 1922:177), ularning miqdori o'zbek tilida 24 ta (Mirtajiyev, 2004:55), turkman tilida 21 ta (Otamirzayeva va Yusupova, 2004:68), xorazm shevasida esa 22 tani (Kartalioğlu, 2007:132-133) tashkil etadi:

1-jadval

O'zbek adabiy tili, xorazm shevasi va turkman tili undoshlar sostavi

T / r	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
1.	b	b	b
2.	d	d	d
3.	f	-	f

4.	g	g	g
5.	h	h	h
6.	j	j	j
7.	k	k	k
8.	l	l	l
9.	m	m	m
10.	n	n	n
11.	p	p	p
12.	q	q	-
13.	r	r	r
14.	s	s	s
15.	t	t	t
16.	v	v	w
17.	x	x	-
18.	y	y	y
19.	z	z	z
20.	g‘	g̚	-
21.	sh	š	š
22.	ch	č	č
23.	ng	ŋ	ŋ
24.	dj		dj

Ko'rindiki, o'zbek va turkman tillarida mavjud bo'lgan, sirg'aluvchi **dj** va lab-tish tovushi **f** undoshi xorazm shevasida yo'q, so'z tarkibidagi **f** undoshi **p** ga, **dj** esa **j** ga aylanadi. O'zbek adabiy tilidagi chuqur til orqa **q**, **g‘**, **x** tovushlari xorazm shevasida bo'lsa-da, ammo talaffuz jihatidan aynan emas. Xorazm shevasidagi bu undoshlar til o'rta **k**, **g**, bo'g'iz tovushi **h** ni talaffuz qilgandan orqaroqda va qattiq tarzda tallafuz qilinadi. Turkman adabiy tili normalariga ko'pchilik olimlar tomonidan kiritilishi rad etilgan bu tip undoshlarning talaffuzi xorazm shevasidagi kabi bir xildir.

Umuman olganda, unlilarning miqdorini belgilashda bo'lgani kabi, undoshlarning tarkibini tuzishda ham ikki adabiy til vakillarida ham har xilliklar mavjud. Xususan, o'zbek adabiy tili undoshlar sostavida 24 ta fonema bor deyilsa-da, ammo ushbu miqdor yuzasidan turlicha fikrlar bor. Jumladan, S.Otamirzayeva (Otamirzayeva va Yusupova, 2004:8), Y.D.Polivanovlar (Polivanov, 1922) 22 ta, A.K.Borovkov (Borovkov,

1960), I.A.Kissenlar (Kissen, 1979:21) 23 ta desa, A.N.Kononov (Kononov, 1960), V.V.Reshetov (Reshetov, 1959:212), A.Abduaazizovlar (Abduazizov, 1992:54-66) 25 ta, shuningdek, o'zbek adabiy tilida olim M.M.Mirtojiyev tomonidan 27 undosh borligi qayd etilgan (Mirtojiyev, 2004:102-103). H.Jamolxonov o'zbek tilidagi undoshlarning miqdorini belgilash borasida o'zining "O'zbek tilining nazariy fonetikasi" qo'llanmasida yuqoridagi olimlarning qarashlarini batafsil yoritib, ulardan kelib chiqib o'z fikrlarini bayon etadi (Jamolhonov, 2009:117-139). Ma'lum bo'ladiki, o'zbek tili undoshlar sostavidagi asosiy munozara o'zlashgan **f**, **dj**, **ts** fonemalarining o'zbek tilidagi fonema maqomining bor-yo'qligi yuzasidan bo'lib, Mirtojiyev esa **ng** (vang'illamoq, do'ng'illamoq, to'ng' so'zlaridagi chuqur til orqa sonant) va **dz** (chetdan o'zlashgan familiyalarda qo'llanadigan affrikat) tovushlarini ham alohida fonema sifatida kiritadi.

Turkman tilida ham undoshlar sostavi bahsli bo'lib, ko'pchilik olimlar tomonidan 21 ta undosh qabul qilingan bo'lsa ham, munozaralar hanuz davom etmoqda. A.P.Potseluyevskiyning fikricha 25 ta (Potseluyevskiy, 1936), G.Qulmonov (Kulmanov, 1964:18) va X.Mashakovlarning (Mashakov, 1975:30-31) fikricha, 22 ta, Boqiye 23 ta (Bagiyev, 1985:15) desa, A.Annanurov, P.Azimov, J.Amansariyev, G.Sariyev, T.Tojimurodov, M.Xudoyquliyev, B.Xo'jayevlar esa 21 ta undosh fonema tarafdarlaridir. Turkman tilidagi undoshlar sostavi yuzasidan bahslar asosan, qattiq va yumshoq talaffuz qilinuvchi o'g'uz turkum tillariga xos bo'lgan **g** va **k** justliklari, shuningdek, **x** va **h** fonemalarini alohida fonema yoki fonemaning varianti sifatida hisoblash masalasi bilan bog'liqdir.

Aytish joizki, ikki tilda ham undosh fonemalar miqdori xususida tugal fikr yo'q. Bu esa mazkur ishda ba'zi qiyinchiliklarni tug'diradi. Shu sababli ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan, kitob-darsliklarda qayd etilgan o'zbek tilida 24 ta, turkman tilida 21 ta va ba'zi o'rinnarda qattiq **g**, **k**, bo'g'iz tovushi **h** undoshlarni qo'shgan holda qiyos etamiz.

Undosh fonemalar akustik-artikulatsion jihatdan, asosan, quyidagi 3 tasnif asosida guruhlarga bo'linadi:

1. hosil bo'lish o'rniga ko'ra;
2. hosil bo'lish usuliga ko'ra;
3. ovozi shovqinning ishtirokiga ko'ra.

Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undoshlar tovush hosil qilishda ishtirok etadigan nutq a'zolarining qay birida yuzaga kelishi yoki boshqa a'zolarga nisbatan ko'proq faolligi jihatdan, til, lab bo'g'iz undoshlariga bo'linadi:

2-jadval

Hosil bo'lish o'rni	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Til	d, g, j, k, l, n, q, r, s, t, x, y, z, g*, sh, ch, ng, dj	d, g, j, k, l, n, q, r, s, t, x, y, z, g*, š, č, ȳ, ȳj	d, g, j, k, l, n, r, s, t, x, y, z, š, č, ȳ, ȳj, dj
Lab	b, p, m, v, f	b, p, m, v	b, p, m, v, f
Bo'g'iz	h	h	h

Til tovushlari o'z o'mida uchga bo'linadi:

- a) til oldi
- b) til o'rta
- c) til orqa

3-jadval

Tilning qayerida	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Til oldi	d, t, l, n, s, z, sh, j, r, ch, dj	d, t, l, n, s, z, sh, j, r, ch,	d, t, l, n, s, z, š, j, r, č, dj
Til o'rta	y	k, g, y, ȳ	y
Til orqa	g, k, ng; q, g*, x	g, k, ȳ; g, k, x	g, k, ȳ; g, k, x

Til undoshlari tilning qaysi qismi faolligiga ko'ra til oldi, o'rta, orqa guruhlariga bo'linib, bular yana o'z ichida bo'linishlarni hosil qiladi. Til oldi tovushlari turkman tilida 3 ga (Polivanov, 1922:31-32) bo'linadi:

- a) til oldi-tish ora (dil ujy – diş ara): **s, z;**
- b) til oldi-tepa tish (dil ujy - diş düýbi): **d, t, n;**
- c) til oldi-old tanglay (dil ujy-alynky kentlewük): **č, j, š,**
- z, r, l.**

Turkman tilidagi til oldi-tish ora, apikal (alveolyar) **s, z** undoshlari o'zbek adabiy tili va xorazm shevasidagi til oldi dorsal (dental) (Alimardanov, 2020:28) **s, z** undoshi talaffuzidan farq qiladi (Mirtajiyev, 2004:75). Turkiy tillarda **s, z** undoshlarining apikal aytilishi turkman tilidan tashqari boshqirt tiliga ham xos bo'lib, boshqa turkiy tillarda bu holat saqlanmagan. **s, z** undoshlarining dorsal talaffuz etilishi turkman tilining nohur, enev, hasar, qiroch, chakas, chandir kabi shevalarida ham uchraydi (Otamirzayeva va Yusuova, 2004:17).

Til orqa undoshlari ham turkman tilida 3 guruhgaga bo'linadi:

- a) til orqa-tomoq tovushi: **x**
- b) til orqa-quyi tanglay: **k, g, ȳ, h**

c) til orqa-o'rtta tanglay: **k, g, ң**

O'zbek adabiy tili va xorazm shevasida til orqa tovushlari ikkiga bo'linadi:

- a) sayoz til orqa: **g, k, ng;**
- b) chuqur til orqa: **q, g', x.**

Lekin xorazm shevasidagi chuqur orqa til tovushlari turkman tilidagi til orqa-quyi tanglay undoshlari kabi talaffuz qilinadi. Shuni aytish kerakki, xorazm shevalarida til o'rtta undoshlari maksimal darajada ingichkalashadi va o'rniga ko'ra til o'rtasida hosil bo'ladi.

Talaffuzda lab ishtirok etgan tovushlarga lab tovushlari deyiladi va lab tovushlari o'z ichida ikkiga bo'linadi: lab-lab, lab-tish.

4-jadval

Labning ishtiroki	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Lab-lab	b, p, m	b, p, m, w	b, p, m, w
Lab-tish	v, f	v	v, f

Bo'g'iz tovushi: **h**

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undoshlar shovqinli va ovozdorlarga (sonorlarga) bo'linadi:

5-jadval

Ovoz va shovqinning ishtiroki	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Sonorlar	m, n, ng, l, r, y	m, n, ng, l, r, y	m, n, ň, l, r, y
Shovqinlilar	b, d, f, g, j, k, p, q, s, t, x, z, g', v, sh, ch, ng, dj	b, d, g, j, k, p, q, s, t, x, z, g', v, sh, ch, ng	b, d, f, g, j, k, p, s, t, x, z, v, ş, ç, ň, ž

Shovqinlilar o'z o'rnida tarkibda ovoz va shovqinning miqdoriga ko'ra, jarangli va jarangsizlarga bo'linadi:

6-jadval

Ovoz va shovqinning miqdori	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Jaranglilar	b, v, d, z, j, g, g', dj	b, v, d, z, j, g, ǵ	b, v, d, z, j, g, ž

Jarangszilar	p, f, t, s, ch k, q, sh, h, x	p, t, s, č, k, q, š, h, x	f, h, k, p, t, s, š, ç
--------------	----------------------------------	------------------------------	---------------------------

Turkiy tillarda talaffuzda qulaylikka intilish sababli jarangli tovushlar jarangsizlarga yoxud jarangsizlar jaranglilarga almashadi. Shu jihatdan, ba'zi jaranglilar o'z jarangsiz juftlariga ega. O'zbek tilida: **p-b, f-v, t-d, s-z, ch-j, k-g, q-g'** tovushlari o'zaro juft bo'lsalar, **h, x, sh, dj** jarangsizlarining jarangli juftlari yo'q. Sonorlar **m, n, ng, l, r, y** tovushlari jarangli hisoblanib, ularning jarangsiz juftlari yo'q.

Hosil bo'lish usuliga ko'ra, sirg'aluvchi, portlovchi, qorishiq tovushlarga bo'linadi:

7-jadval

Hosil bo'lish usuli	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Portlovchi	b, d, g, j, k, m, n, p, q, t, ng	b, d, g, j, k, m, n, p, q, t, ɳ	b, d, g, j, k, m, n, p, t, ń
Sirg'aluvchi	f, h, l, r, s, v, x, y, z, sh, g'	h, l, r, s, v, x, y, z, š, ġ	f, h, l, r, s, w, y, z, §
Qorishiq	ch, dj	č	ç, ž

4. XULOSALAR

Turkiy tillarda undosh tovushlar miqdori, xususiyatlari jihatidan bir-biridan u qadar katta farq etilmaydi. Bu holatni o'zbek va turkman tillarida ham kuzatish mumkin. Xulosa o'rnida ikki til undoshlar tizimining umumiy va farqli tomonlarini quydagicha keltirish mumkin:

1. O'zbek va turkman tillari undoshlar tizimida jiddiy murakkabliklar bo'lmasa-da, bu ikki tilning o'ziga xos xususiyatlari undoshlarda aks etgan.
2. Aksariyat undosh fonemalar artikulyatsiyasi o'zbek va turkman tillarida aynanlikka ega, ayni zamonda turkman tilida undoshlarda ayrim artikulyatsion o'ziga xosliklar bor. Bular **k, g, z, s** va boshqa undoshlarda ko'rindi.
3. Turkman tili turkiy til tarixida faol qo'llangan **ð (dz)** undoshini eslatadigan lab va tish tovushini saqlab qolganligi bilan o'zbek tilidan farqlanadi.
4. Fonetik jarayonlar umumiyligi qonuniyati saqlanib qoladi, lekin ular qaysi so'zlarda ishtirok etishi jihatidan o'zaro farqlanadi.

Adabiyotlar

- Alimardanov, E. (2020). *O'zbek tilini o'g'uz turkum tillari bilan qiyosiy o'rghanish (turkman tili fonetika misolida)* (Magistrlik dissertatsiyasi) Toshkent.
- Kartallıoğlu, Y. Hüseyin, Y. (2007). *Azerbaycan Türkçesi. Türk Lehçeleri Grameri*. Ankara.
- Kartallıoğlu, Y. Hüseyin, Y. (2007). *Türkiye Türkçesi. Türk Lehçeleri Grameri*. Ankara.
- Nyýazow, S. (2009) *Türkmen dili*. Aşgabat.
- Sayfullayeva, R. Mengliyev, B. Boqiyeva, G. Qurbonova, M. Yunusova, Z. Abuzalova, M. (2010). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: Fan va texnologiya.
- Täçmyradow, T. (2002). *Häzirki zaman türkmen dili*. Fonetika. Aşgabat: Ylym.
- Weýisow, B. (2008). *Türkmen diliniň taryhy*. Aşgabat.
- Абдуазизов, А. (1992). *Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Абдулаев, Ф. (1961). *Ўзбек тилининг хоразм шевалари*. Тошкент
- Багыев, Х. (1985). *Түркмен дилиндеги комбинатор сес үйтгемелери*. Ашгабат: ТДУ
- Баскаков, Н. (1988). *Историко-типологическая фонология тюркских языков*. Москва: Наука.
- Боровков, А. (1961) *Краткий очерк грамматики узбекского языка. Узбекско-русский словарь*. Москва: Гос.Изд. иностранных и национальных словарей.
- Жамолхонов, X. (2009). *Ўзбек тилининг назарий фонетикаси*. Тошкент: Фан
- Киссен, И. (1979). *Курс сопоставительной грамматики русского и узбекского языков*. Ташкент: Ўқитувчи.
- Кононов, А. (1960). *Грамматика современного узбекского литературного языка*.
- Кулманов, Г. (1964). *Фонетика. Сравнительная грамматика русского и туркменского языков*. Ашхабад.
- Машаков, X. (1975). *Түркмен дилиниң чекимсиз сеслериниң фонема составы*. Ашгабат.
- Миртоҗиев, М. (2004). *Хозирги ўзбек адабий тили*. Тошкент.

- Отамирзаева, С. Юсупова, М. (2004). Ўзбек тили. Тошкент.
- Поливанов, Е. (1922). Звуковой состав ташкентского диалекта .*Наука и просвещение*. Ташкент.
- Поцелуевский, А. (1936). Фонетика туркменского языка. Ашхабад.
- Решетов, В. (1959). Узбекский язык. Ташкент:Учпедгиз.
- Серебренников, Б. Гаджиева Н. (1986). Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков.
- Щербак, А. (1970). Сравнительная фонетика тюркских языков.